



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776(E) | SJIF 2023: 6.907

Nazarbek Naxalboyev  
Fazliddin o'g'li

*O'zbekiston Finlandiya pedagogika instituti  
Umumtexnika fanlari va texnologiyalar kafedrasи assistenti*

***BO'LAJAK TEXNOLOGIYA FANI O'QITUVCHILARINING  
IJODIY FAOLLIGINI RIVOJLANTRISHDA KOMPAS 3D DASTURIDA  
LOYIHALASHDAN FOYDALANISH METODIKASI***

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarni ijodiy faolligini rivojlantrish maqsadida, amaliy mashg'ulotlarni hozirgi zamonaviy fan-texnika sharoitida KOMPAS-3D dasturidan foydalanib ushbu jarayonda bo'lajak o'qituvchilarni dunyo qarashini, tasavvurini shakllantrishga qaratilgan va shu haqida so'z yuritiladi,

**Kalit so'zlar:** KOMPAS-3D dasturi, kompyuter, o'qituvchi, ijodiy faoliyat, dasturlash, ijodiy faollik, ijodkorlik kompetensiya.

Hozirgi zamonaviy fan-texnika sharoitida ta'limga kirib kelayotgan bo'lajak o'qituvchilarga ilmiy-texnik, iqtisodiyot va ishlab chiqarish asoslariga oid zamonaviy bilimlar berish, ularni intellektual salohiyatlarini yanada rivojlantirish, atrofdagi voqealarni hodislarga ijodiy munosabatda bo'lishni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda texnologiya fanidan amaliy mashg'ulotlar jarayonida turli xil muammolarni hal qilishga to'g'ri keladi. Tabiiyki, amaliy mashg'ulotlarda ushbu muammolarni bartaraf etmasdan turib dars samaradorligini oshirib bo'lmaydi.

Ushbu muammolarga yechim sifatida ta'limga jarayoniga AKTlardan foydalanishni keltirib o'tishimiz mumkin.

Bo'lajak texnologiya o'qituvchilarning ijodiy faollikni rivojlantrish bilan shug'ullanish jarayonida axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalanish ularni to'g'ri tatbiq qilish ixtirochilik va tadqiqotchilik faoliyatlariga qiziqishlarini rivojlantirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur vazifalarni amalga



oshirish uchun ta’lim jarayonida zarur muhitni hosil qilish, mavjud vaziyatni tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish, zarur nazariy bilimlarni egallash va ularni amaliyotda qo‘llay olish lozim. Fan-texnika taraqqiy etib, ta’lim jarayonida turli innovtasion texnologiyalar tadbiq etilayotgan hozirgi vaqtida o‘quvchilarga zarur bilimlar berish bilan bir qatorda zamonaviy fan yutuqlariga asoslangan texnik ijodkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Kompas 3D dasturi barcha yo‘nalishdagi chizmalarni tez, sifatli va oson tartibda chizishni va 3D modellar (loyihalar) ustida amal bajarish, ishlov berish, yaratish, harakatlantirish, sinovdan o‘tkazishni va albatta real ko‘rinishda aks ettirishni kompyuter grafikasi orqali o‘rgatishimiz mumkin. Shuningdek bu dasturda jahon standartlariga mos keladigan barcha turdagи jumladan mexanik, elektrik va arxitektorlik chizma hamda 3D loyihalarni yaratishda dastur kutubxonasi orqali juda tez va oson yaratishimiz mumkin.

Bo‘lg‘usi texnologiya ta’lim yo‘nalishi o‘quv dasturidagi fanlarni o‘qitish jarayonida KOMPAS -3D dasturidan foydalanish imkonyatlarini ko‘rib chiqamiz.

Quyida 60112300-Texnologik ta’lim yo‘nalishi 1-kurs o‘quv rejasidagi “Texnologik ta’lim praktikumi” fani dasturida mavzulari keltirilgan:

12-mavzu: Tirnoqli birikmalar tasnifi va texnologiyasi;

13-mavzu: Burchakli va tirnoqli birikmalarni tayyorlashda ishlatiladigan material;

14-mavzu: Tayyor buyumlarga ishlov berish texnologiyasi;


15-mavzu: Qulqocha va turumli o‘rtalik birikmalarni tayyorlash texnologiyasi.

Bo‘lg‘usi texnologiya o‘qituvchilarining ushbu mavzularni o‘zlashtirishlari uchun umumiy o‘rtalik maktabining texnologiya fani 8-sinf “ Texnologiya va dizayn” yo‘nalishi 7-mavzusida “Shashka doskasi” yasash amaliy mashg‘uloti bor bo‘lib yani taqvimiyl ishchi o‘quv rejasida (3-amaliy mashg‘ulot) berilgan.

Shashka doskasini yasash mavzusini ko‘rib chiqamiz. Bu mavzuni an’anaviy usulda yasash bir necha bosqichlarda tashkil etilgan bo‘lib, bu bosqichlar o‘z ichiga shashka doskasining grafik tasviri, texnologik jarayonning asosini tashkil qiladigan texnologik xaritasi, yasalgan buyumning sifatini yaxshilash, muddatini oshirish va saqlash maqsadida pardozlash ishlari qamrab oladi (1-jadval).

### 1-jadval

Shashka doskasi yasash texnologik xaritasi



№ Ish ketma- ketligi

Ishni bajarish bo‘yicha Asboblar


Jihoz va moslamalar

ko‘rsatma

O‘lchov Ish



- 1 Shashka doskasi eskizi chiziladi



qalam,  
chizg'ich

- 2 Shashka ramkasini tayyorlash uchun bir juftdan 28x2x2 sm va 24x2x2 sm o'lchamdagи reykalar arralab olinadi



qalam, arra Arralash va  
chizg'ich, randalash  
go'niya

- 3 Shashka doskasini tayyorlash uchun 28x28 sm o'lchamdagи faner bo'lagi arralab olinadi



qalam, arra Arralash va  
chizg'ich, randalash  
go'niya stanogi

- 4 PVA yelimi yordamida reykalarni bir -biriga birktrib ramka yasaladi. Ramka ustiga tayyorlangan faner qoplanadi



go'niya cho'tka PVA yelimi  
qisqich


- 5 Shashka doskasi chetidan 2 sm qoldirib chiziq chiziladi. Chizilgan ramkaning ichki katakchalari qismi 4x4 sm o'lchamdagи 64 ta kvadratga bo'linadi




qalam,  
chizg'ich

Endi biz shashka doskasini axborot texnologiyalardan foydalanib KOMPAS 3D dasturida loyhalashni ko'rib chiqamiz.

Avvalo, 3D programmasini tushunish uchun bo'lajak texnologiya o'qituvchilari kompyuterni yaxshi bilishi, bundan tashqari, windows operasion sistemasini, menyuni, oynalar bilan ishlashni, komandalar bilan, ularni joylashtira bilishi va programma haqida qisqacha bo'lsa ham ma'lumotga ega bo'lishi lozim. Bunda biz chizadigan shashka doskasini yaqqol ko'rinishlarini 3D da ko'rishimiz mumkin ya'ni 3 tomonlama ko'rinishlarini, bundan tashqari chizgan detallarni birlashtirish imkoniyatiga ham egamiz. KOMPAS 3D dasturida 3D ishga tushirilgandan so'ng dastlab, chizma bajarish uchun dastur parametrlari o'rnatilishi lozim. Chizma chizishdan oldin "Файл" menyusidan "Создать" ga kirib "деталь" punkti tanlanadi.




1-rasm. 3D dasturida ishchi chizmaga kirish




2-rasm. Z koordinata o‘qi

2-rasmda ko‘rsatilgandek panel ochiladi, uni chap tomonida 3 ta yuza yani x, y, z koordinata o‘qlari berilgan, biz o‘zimizga kerakli z yuzani tanlab olib "Эскиз" buyrug`ini yoqamiz va "отрезок" buyrug`iga kirib kvadrat chizishni boshlaymiz,




3-rasm. 30x30 smlı kvadrat (o‘lchamlar ixtiyoriy bo‘lishi mumkin)

“Прямоугольник по центру и вершине” buyrug‘i asosida tomonlari teng 30x30 mmli kvadrat hosil qilamiz (3-rasm) “Элемент выдавливания” buyrug‘i asosida 10 mm qilib detal ko‘rinishiga keltiramiz (4-rasm).




4-rasm. Detal ko‘rinish (shashka doskasining bir qismi)

Detal ko‘rinishga kelgandan so‘ng oq va qora ranga bo‘yab chiqamiz uning uchun biz <<Свойства>> buyrug‘idan birinchi oq rangga bo‘yab <<Сохранить>> qilamiz va yana <<Свойства>> buyrug‘idan qora rangga bo‘yab <<Сохранить>> qilamiz.




5-rasm. Detalni oq rangga bo'yash



6-rasm. Detalni qora rangga bo'yash


Keyin, <<Новый документ>> papkasiga kirib <<Сборка>> buyrug‘idan foydalaniib <<Добавить компонент из файла>> qora rangli katakchani olib markazlari x,y,z=0 qiymatda joylashtiramiz.



7-rasm. Qora rangli detalni joylash




<< Массив по сетке>> buyrug‘i asosida << Направление 1 >> buyrug‘idan <<Наклон>> 0 gradus qilib << Эскимпляров по направлению>> 4 dona belgilab olamiz keyin, << Рассстояние >> buyrug‘idan masofasini 60 sm qilib olamiz keyin, << Направление 2 >> buyrug‘idan <<Наклон>> 90 gradus qilib << Экземпляров по направлению>> 8 dona belgilab olamiz keyin, << Рассстояние >> buyrug‘idan masofasini 30 sm qilib olamiz va << Дополнительные параметры>> buyrug‘idan << Шахматный порядок>> buyrug‘ini belgilab olamiz va tastiqlaymiz




8-rasm. Shashka doskasiga keltrish

Bu jarayondan keyin oq donalarni ham shu tariqa amalga oshiramiz



9-rasm. Oq va qora detallarni biriktrish

Tayyor shaxmat doskasi kelib chiqadi



10-rasm. Shashka doskasi tayyor holati

Shashka doskasi tayyorlash jarayoni shu tarzda yakunlandi, bajarilgan ishni saqlab A4, A3 formatda chiqarishimiz yoki 3D printerda bosmaga berishimiz mumkin bo‘ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bo‘lg‘usi texnologiya o‘qituvchilarida shashka doskasini an’anaviy va axborot texnologiyalarda foydalanib loyihalashni o‘rgatishda an’anaviy usulga qaraganda Kompas-3D dasturidan foydalanish ko‘nikmalarini va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantrishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.



### Foydalanimanadabiyotlar ro'yhati

1.R.T.Gaziyeva Avtomatik loyihalash tizimlari T: 2019y

“2022–2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” PF-60-son O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 28yanvar 2022y

2. “O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” PF-6108-son 6 noyabr 2020 y

3. “Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-t adbirlar to'g'risida” PQ-4884-son 6 noyabr 2020y

3. O'. O. Tohirov, D. S. Mirahmedova, Z. S. Shamsiyeva Texnologiya 5-sinf darslik “SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahriri yati toshkent – 2020

4. G'.Abduqodirov Kasb ta'limi praktikumi .T.: 2012 yil

5. Герасимов Анатолий Александрович КОМПАС-3D V19. Самоучитель 2021y